

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

G'ULAMOV OBIDJON G'AYRATOVICH

**IJTIMOYIY-MADANIY OMILLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATINI
YUKSALTIRISHDAGI O'RNI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

G'ulamov Obidjon G'ayratovich

Ijtimoiy-madaniy omillarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni 3

Гуламов Обиджон Гайратович

Роль социокультурных факторов в повышении духовности молодежи 27

Gulamov Obidjon Gayratovich

The role of sociocultural factors in increasing the spirituality of youth 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

G'ULAMOV OBIDJON G'AYRATOVICH

**IJTIMOYIY-MADANIY OMILLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATINI
YUKSALTIRISHDAGI O'RNI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1137 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti veb-sahifasida (www.namdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Berdaliyev Nizomiddin Sheraliyevich
siyosiy fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Nasriddin Atakulovich
falsafa fanlar doktori (DSc), professor

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobur shox ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
2025-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.

R.T.Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global taraqqiyot natijasida milliy qadriyatlarga tahdid sifatida namoyon bo'layotgan ayrim salbiy ko'rinishlar kelajak taraqqiyotni ta'minlovchi kuch hisoblanuvchi yoshlar intellektual salohiyati, ularning milliy xususiyatlarga asoslangan ma'naviy yuksalishiga asosiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Chunki, mingyilliklar tajribasidan o'tgan ijtimoiy-madaniy omillarning jamiyat ma'naviy yuksalishidagi o'zni ahamiyatli bo'lib, undan bugungi global ta'sirlar mavjudligi sharoitida muhim. Bugungi kunda miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham o'sib borayotgan yoshlar qatlami texnogen sivilizatsiyaning asosiy ta'sir obyektiga aylanib, har qanday taraqqiyot yoshlarni ta'sirchan kuch sifatida o'z domiga tortib borayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Global taraqqiyot sharoitida obyektiv jarayon hisoblanuvchi ushbu hodisa yoshlarni umuminsoniy taraqqiyotning optimal rivojini ta'minlashga hissa qo'shuvchi bunyodkor kuch sifatidagi faoliyatiga urg'u berish, tarbiyalash va yo'naltirishni taqozo etmoqda. Chunki, jahon miqosida o'z ta'sirini o'tkazishga intilib hamda bunga erishib kelayotgan ushbu global tendensiya birinchi navbatda ijtimoiy taraqqiyotning yuksalayotgan subyekt bo'lgan yoshlar tafakkuri va ma'naviyatiga ta'sir etishga intilishi ham e'tiborni tortadi.

Dunyoda umuminsoniy taraqqiyot yo'nalishini ta'minlashda yoshlarga asosiy kuch sifatida qarab, ular salohiyati va imkoniyatlaridan insoniyat manfaatlari yo'lida foydalanish muhimligini tadqiq etuvchi ilmiy markazlar hamda bir qator tadqiqot institutlari faoliyat olib bormoqdalar. Ular global ta'sirlar sharoitida umuminsoniy madaniyatda ma'naviy yuksalishga nisbatan ma'naviy tanazzul yoki tubanlashish nisbati ortib borayotgan bugungi realliklar sharoitida yoshlar dunyoqarashi va faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarga urg'u berayotganligi ahamiyatli. Bunday omillar targ'ibi va tadqiqi bilan shug'ullanish borasida jahon ilmiy jamoalari, xalqaro jamg'armalar hamda yoshlar faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yoshlarni faollashtirishga doir qarashlarning metodologik asoslarini yoritishga oid bir qator konseptual qarashlarni ilgari surib, nazariy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yoshlar siyosati, ularning ma'rifiy-ma'naviy faoliyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Dastlab, "Kamolot" yoshlar tashkilotining ta'sis etilib, so'ngra Yoshlar Ittifoqiga aylantirilishi, Yoshlar Agentligi faoliyatining yo'lga qo'yilishi mamlakatimizda yoshlarning o'z bilimlarini qo'llagan holda salohiyatlarini ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlarda safarbar etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada ijtimoiy-siyosiy sohalarida yoshlar ulushi o'sib borib, ular jamiyatning faol a'zolariga aylana boshladilar. Jamiyatda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib: "Yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib beryapmiz, katta-katta lavozimlarni ularga ishonib topshiryapmiz. Ularda bilim bor, iste'dod bor, lekin, ayrimlari milliy zamin, milliy ma'naviyatimizdan uzoqlashib ketgani sezilib qolmoqda"¹. Haqiqatdan ham yoshlarni milliy ma'naviyatimizga sodiqlik ruhida

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 262.

tarbiyalash, qadriyatlarimiz vorislari sifatida ularda sharqona odob-axloq namunalarini singdirish asosida ular faoliyatini milliyashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” to‘g‘risidagi, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmonlari, 2019-yil 8-apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” F-5465-sonli Farmoyishi hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalar ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari ², mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining yangi bosqichini boshlab bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekistonning Strategik taraqqiyotini ta‘minlovchi barqaror va izchil rivojlantirishga oid konseptual g‘oyalari ³ tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Insoniyat jamiyatida ma‘naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish bo‘yicha qadriyatlarimiz namunasi bo‘lgan Zardushtiylikning “Avesto” asari, undagi “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” konsepsiyasining mohiyati, qadimgi yunonistonlik Suqrot, Aflotun, Aristotel, Pifagor asarlarida jamiyatda ijtimoiy-madaniy muhitni barqarorlashtirish, unda madaniy omillardan samarali foydalanishga oid fikr va mulohazalari ahamiyatli. antik davr faylasuflari Aflotun (Platon)ning falsafiy ta‘limotida jamiyat a‘zolari, shuningdek yoshlar taraqqiyotni ta‘minlovchi kuch sifatida qaralsa, Suqrot(Sokrat)ning falsafiy ta‘limotida insonning insonligi uning

² Каримов И.А. Асарлар тўплами. Т. 1-24. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993-2016.

³ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.; Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.; Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.; Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.–488 б.

ma'naviyatida ekanligi, u ma'naviyat tashuvchi subyekt sifatida hech qanday yovuzlikka qodir emasligi, aksincha barcha yomon ishlarni bilimsizlikdan, ma'naviyatsizlikdan, ya'ni ularning vayronkor tabiatini bilmaganligi, anglamagan holda qilishi e'tirof etiladi.

O'rta asrlarda ajdodlarimiz Al-Forobiy, Al-Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojibning ijtimoiy faollikka oid asarlari, xususan, xalqimizning buyuk mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mukammal bo'lmagan jamiyatda ma'naviy barkamollikka erishish mumkin emasligi va unda jamiyatning mukammalligi, bevosita odamlar fozilligi bilan bog'liq ekanligi g'oyasi ilgari suriladi.

XV-XVI asrlarda Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy va adabiy asarlar talqini asosida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan asarlari va qarashlari, jadidchilik g'oyalari vakillari Ismoil Gaspirali, Munavarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon kabi buyuk allomalarning ma'rifat va ma'naviyat orqali jamiyatdagi muhitni sog'lomlashtirish haqidagi konseptual g'oyalaridan foydalanildi⁴.

MDH, xususan, Rossiya olimlari A.Kuznetsov, R.Logua, S.Pershutkinlar tomonidan yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning g'oyaviy-ma'naviy jihatlari borasida ilmiy qarashlar nazariy asoslangan.

O'rganilayotgan muammoning umumnazariy xususiyatlari, jumladan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish orqali ularning ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi ishtirokini faollashtirish, bunda ijtimoiy-madaniy omillardan samarali foydalanish muammolari tadqiq etilib, milliy istiqlol yillarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosatchi, faylasuf, sotsiolog, huquqshunos va tarixchi olimlar tomonidan yoshlar muammolari, milliy ma'naviyat, milliy o'zlikni anglashda milliy ma'naviyatning o'rni masalalariga bag'ishlangan asarlar, ilmiy va davriy nashrlardagi maqolalar hamda mulohazalar ham o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Hozirgi global taraqqiyot sharoitida yoshlar mavqei, jamiyatning ijtimoiy strukturasi tutgan o'rni, milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda yoshlarning roli, milliy g'oya targ'ibida ta'sir obyekti sifatida yoshlar, milliy yuksalish va o'zlikni anglash, diniy-ma'rifiy omilning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, yoshlar va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashtirish sharoitida tendensioz o'zgarishlarning yoshlar madaniyatiga ta'siri, O'zbekistonda yoshlarga oid siyosiy-huquqiy yondashuvlar kabi masalalarni O'.Abilov, G.Tulenova, Z.Qodirova, S.Mamashokirov, I.Saifnazarov, O.Musayev, A.Ochildiyev, E.Yusupov, J.Yaxshilikov kabi olimlar tadqiq etganlar. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy xavfsizligi va maqsadli faoliyatini tashkil etish, xorij tillarini o'rganishning ahamiyatini, siyosatshunos olimlar S.Jo'rayev,

⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд. Хамса: Ҳайратул-аброр Т.: Фан, 1991., Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Т.: Чўлпон, 1993., Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: Янги аср авлоди, 2016. Исмаил Бей Гаспринский. Русское мусульманство: Мысли, заметки и наблюдения. - Россия и Восток. - Казань, 1993., Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. - Тошкент: Маънавият, 2003., Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. 2-табъи. - Тошкент, 1917., Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Тошкент. Фан. 1993., Чўлпон. Адабиёт надири. - Т., 1994.

N.Jo'rayev, S.Atamuratov, Sh.Paxrutdinov, I.Ergashev, Q.Nazarov, Q.Quronboyev, G.Masharipovalar ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik, globallashuv jarayonlarining yoshlar ongiga ta'sirini, pedagog olimlar A. Do'lanov, M.Quronov, M.Lafasov, Z.Madaliyeva, pedagogik tarbiya va ta'lim tizimi islohotlarining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi rolini ochib berganlar⁵.

Madaniy omillarning jamiyat ijtimoiy tafakkuriga ta'siri, etnomadaniyatlar targ'ibining ijtimoiy birlik, do'stlik va hamjihatlikni ta'minlashdagi o'рни, qadriyatlar tizimida madaniy omillarning o'рни masalarida U.Qoraboyev, O.Nishonova, U.O'tanovalar, S.Otamurodov milliy-ma'naviy taraqqiyot, globallashuvning etnomadaniy hayot bilan bog'liq jihatlarini ⁶, O'.Abilov, G.Tulenova, Z.Qodirova, S.Mamashokirov, N.Nazarov, O.Musayev, A.Ochildiyev, E.Yusupov, J.Yaxshilikov yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy xavfsizligi va maqsadli faoliyatini tashkil etish, xorij tillarini o'rganishning ahamiyatini ochib berganlar⁷.

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy ishlar va nazariy adabiyotlarning tahlilida yoshlar umuminsoniy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida yuksalib borayotganligi aniqlandi, biroq ushbu izlanishlarda yoshlarda ijtimoiy-madaniy omillarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'рни masalalariga e'tibor qaratilmaganligi bois, ushbu ilmiy ishda, yoshlar ma'naviy takomilida ijtimoiy-madaniy omillarning o'rnini aniqlash maqsadi qo'yilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AL-5321091567-sonli "O'zbekiston tarixiy shaharlarining an'anaviy arxitektura va madaniyatini hamda tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy "dizayn-kod"larni ishlab chiqish (2022-2023)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston jamiyatida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy omillarning o'rnini ochib berish, bunda ijtimoiy-madaniy omillardan unumli foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yoshlar tushunchasiga oid ijtimoiy-siyosiy va ilmiy konsepsiyalarni o'rganish,

⁵ Jo'rayev N. Yangilanishlar konsepsiyasi, yaratilish evolyutsiyasi va amaliyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002., Jo'rayev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: 2003., Atamuratov S. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновления общества: Дисс. док. филос. наук. – Ташкент, 1992., Paxrutdinov III. Тахдид – халокатли куч. – Тошкент: Академия, 2001., Nazarov Q.N. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2000., Quronov M. Bizni birlashtirgan g'oya. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 2016.

⁶ Otamurodov S. Milliy munosabatlarнинг сиёсий жиҳатлари. – Тошкент: Янги аспр авлоди, 1996.

⁷ Abilov O'. Milliy g'oya: ma'naviy omillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999., Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Falsafa fanlari dok. diss.-ya. – Toshkent, 2006., Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madayeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006., Nazarov N. Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar. – Toshkent: Global Books, 2018.Musayev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – Toshkent: Istiqloq nuri, 2016. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.

“ijtimoiy omillar”, “madaniy omil” va “yoshlar ma’naviyati” tushunchalarning mazmun mohiyati va tahlilini amalga oshirish;

O‘zbekistonda yangicha yoshlar siyosati ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash omili ekanligini, globallashuv sharoitida yoshlar omilidan samarali foydalanish yo‘l va usullarini aniqlashning kategorial tahlilini ochib berish, yoshlar faoliyatini mustahkamlashda mahalla va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rnini ko‘rsatib berish;

madaniy omil sifatida tasviriy san’atning yoshlar ma’naviyatini oshirishga ta’sirini tahlil qilish;

amaliy san’atning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda madaniy omil sifatidagi mohiyati va ahamiyatini yoritish.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatini yuksaltirishda ta’lim va tarbiya jarayonlari, xususan barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasining mavzuga aloqador yo‘nalishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti. yoshlar ta’limi va tarbiyasida ijtimoiy hamda madaniy omillar, barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida “Besh muhim tashabbus” doirasidagi vazifalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, tizimlilik, kuzatish, eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, sinergetik, germenevtik, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlar ma’naviyati, ijtimoiy, madaniy omillar kabi tushunchalar metodologik jihatdan ochib berilib, bugungi kun realliklari asosida paradigmal voqelikka aylangan ijtimoiy taraqqiyotning kvitessensiyasida ma’naviy omillar ustuvorligi, ya’ni ma’naviyat va moddiy hayotning o‘zaro bog‘liqligi konseptosferasi nazariy jihatdan asoslangan;

barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasining ijtimoiy ahamiyati, uning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni masalalariga e’tibor qaratilib, strategik ahamiyatdagi vazifalar yechimi bevosita ta’lim va tarbiyani klaster, ya’ni o‘quv mashg‘ulotlari, ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishning bog‘liqligini ta’minlash hamda kreativ yondashuvlar, ya’ni milliy qadriyatlarimiz, jadid taraqqiyparvarlarining ta’lim-tarbiya sohasidagi g‘oyalari, shuningdek dunyoviy ta’lim va tarbiyaning ijobiy jihatlarini uyg‘unlashtirishning muhimligi masalalari ochib berilgan;

tasviriy san’at asarlari xalq madaniy hayotining in’ikosi sifatida tarixiylik, an’anaviylik va zamonaviylik talqinidagi milliy mental xususiyatlarni ifodalovchi rangtasvirlar Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishi, ularda vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta’minlashga hissa qo‘shishi kabi ijtimoiy mas’uliyatlarni oshirishga xizmat qilishi asoslangan;

uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi kunda madaniy ta’sirlarning muhim jihati bo‘lgan amaliy san’atda xalqimizga xos qahramonlik, g‘ayrat-shijoat, matonat va bag‘rikenglik ifodalanganligi yoshlarning ma’naviy yuksalishiga ijobiy ta’sir etib, ular dunyoqarashida mardlik, jasorat va matonat

kabi qadriyatlarimiz bilan bog'liklikdagi pozitiv jihatlarning o'sishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-madaniy omillarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

yoshlarda ma'naviyatini yuksaltirish, unda ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish yangi avlod dunyoqarashida yuksak vatanparvarlik, milliy o'z o'zini anglash, mehnatga layoqat va ertangi kunga ishonch ruhida tarbiyalash mexanizmi ekanligi g'oyasiga aloqador taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Yangi O'zbekiston yoshlarida ijtimoiy omillar bilan bir qatorda madaniy omillardan ham foydalanish, bunda tasviriy va amaliy san'at namunalarining milliy mentalitetga mos jihatlari targ'ibi va talqinidan foydalanish yoshlarda vatanparvarlik xislatlari rivojini ta'minlashga xizmat qilib, Vatanga sodiqlik, elsevarlik va yurtparvarlik jihatlari yuksaltirish bo'yicha xulosalar ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani haqida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan takliflardan yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, ma'naviyatni yuksaltirish borasida uzluksiz ta'lim olishni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, barkamol avlod tarbiyasida ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish bo'yicha maqolalar tayyorlashda va konferensiyalardagi ma'ruzalarda, ilmiy loyihalar va monografiyalar yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi xulosalar, taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining viloyat va tuman bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimidagi "Tarbiya" fani, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi "Falsafa" fani va Milliy g'oya, Madaniyatshunoslik, Etnomadaniyat, Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy-madaniy omillarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy takliflar asosida:

yoshlar ma'naviyati, ijtimoiy, madaniy omillar kabi tushunchalarning nazariy-metodologik jihatlari, barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasining ahamiyati, uning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni masalalari, yoshlar barkamolligiga doir konsepsiyalardagi vazifalar yechimi, yoshlar ta'limi va tarbiyasini optimallashtirish vositalari ekanligi kabi konseptual fikr va qarashlardan Respublika ijtimoiy-madaniy tadqiqotlar instituti faoliyatida, xususan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining bir nechta yo'nalishlarida belgilangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-

mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti, Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Markazning 2022–2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-madaniy tadqiqotlar institutining 2024-yil 13-apreldagi №134-sonli Dalolatnomasi). Dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar Yangi O'zbekiston jamiyatida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy omillarning o'rnini ochib berishga xizmat qilgan;

yoshlar ma'naviyati tushunchasining dissertatsiyadagi tahlilidan kelib chiqqan holda barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasi va ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyati, uning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rnini, yoshlar barkamolligini ta'minlashga doir vazifalar yechimi bevosita yoshlar ta'limi va tarbiyasini optimallashtirish vositalari ekanligi kabi fikr, g'oyalar, ilgari surilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston "Milliy Tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturidagi VI. "Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar"da keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatida, jumladan partiya tizimidagi xodimlarning ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarida keng foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy Tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024-yil 27-martdagi №02/02-23-sonli Dalolatnomasi). Natijada partiyaning dasturiy vazifalarini jamiyat a'zolari orasida joriy etib, milliy taraqqiyotni ta'minlashga yo'naltirilgan ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi kunda madaniy ta'sirlarning muhim jihati sifatida amaliy san'atda hamda tasviriy san'at asarlaridagi tarixiylik, an'anaviylik va zamonaviylik talqinidagi milliy mental xususiyatlarni ifodalovchi tasvirlar va mujassamlar Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirib, ularda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashga hissa qo'shish lozimligi kabi mas'uliyatlarni oshirishga xizmat qilishi konkret natijalar talqini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" telekanali faoliyatini targ'ib etishda dissertatsiya materiallaridan keng foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" telekanali"ning 2024-yilning 18-apreldagi №01-09/91-sonli Ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabinlar dunyoqarashida milliy qadriyatlarimiz targ'ibi bilan bog'liklikdagi pozitiv jihatlarning yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 10 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza shaklida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 4 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi: kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 135 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma'naviyati tushunchalarining konseptual-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda Yoshlar va yoshlar ma'naviyati tushunchalarining kategorial tahlili, ijtimoiy va madaniy omillar hamda ularning mohiyati, barkamol avlodni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy omillarning ahamiyati masalalari ochib berilgan.

Jamiyatda ijtimoiy omillar kishini shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy omillarning tarkibiy qismi hisoblangan tarbiya va ta'lim jarayonlari bevosita barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatli. Shu nuqtai-nazardan tarbiya va ta'lim jarayonlariga e'tibor qaratish – O'zbekiston sharoitida muhim bo'lib, ota-onalar, mahalla-kuy, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rta umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus va oliy ta'lim tizimi, shuningdek xizmat va mehnat jamoalari zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Yoshlar ma'naviyati, ularning tarbiyasi va ta'limi to'g'risida gap ketganda ularni jismoniy mukammallikdan ayri ravishda tasavvur etib bo'lmaydi.

Yoshlar jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutib, jamiyat, millat, umuman insoniyatning kelajak taraqqiyotini ta'minlovchi omil sifatida ham doimo tadqiqot mavzularining obyektiga aylanib kelgan. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi adabiyotlarga e'tibor qaratgudek bo'lsak, yoshlar haqida turlicha tariflar mavjud: “Yoshlar – ijtimoiy-demografik guruh sifatida yosh xarakteristikasi, jamiyatdagi ijtimoiy tuzum, madaniyat, ijtimoiylashuv qonuniyatlari asosida jamiyatdagi ijtimoiy holati bilan farqlanuvchi guruh”⁸, sifatida qaralsa, yana bir ta'rifda “Yoshlar – spesifik ijtimoiy va psixologik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati bo'yicha boshqa guruhlardan farqlanuvchi guruh bo'lib, ularning ma'naviy olami shakllanish bosqichidadir”⁹, deyiladi. Yoshlar haqidagi yana bir ta'rifda: “O'zining hayoti va faoliyatida butun ijtimoiy jihatlarini aks ettiruvchi va ular mavjud bo'lmagan taqdirda har qanday xalq yo'qolib ketishga mahkum

⁸ Советский энциклопедический словарь /гл.ред. Прохоров А.М. – 3-е изд. – Москва: Сов.энциклопедия, 1985. – С. 821.

⁹ Дунаева Е.А. Социология молодежи: учеб.пособие для студентов дневного и заочного отделений педагогических вузов. – Тобольск: ТГПИ им. Д.И.Менделеева, 2003. – С. 16.

bo‘lgan guruh – bu shubhasiz yoshlardir”¹⁰, – deyiladi. Bunda yoshlar oila, avlod, el, millat, alal oqibat insoniyat kelajagi ekanligi ifoda etilgan. Ya’ni agar bugungi yoshlar mavjud bo‘lmasa ertaga insoniyat ham bo‘lmaydi, – degan fikr mujassam.

Yoshlar haqida qarashlar turli-tuman bo‘lib, bularda ushbu ijtimoiy qatlamga xos xarakterli xususiyatlarning u, yoki bu jihatlarini ochishga xizmat qiladi. “Shu bilan birga, yoshlar avlod sifatida madaniy ta’sirning passiv obyektidan madaniyat ijodkorining faol subyekti roli bajaruvchisiga qadar ijtimoiy rollarning o‘zgaruvchan holatini o‘zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi”¹¹. Demak, ushbu ta’rifda yoshlar ijtimoiy faoliyatida transformasion jarayonlarning ham yaqqol kuzatilishi e’tiborga olingan.

O‘zbekiston sharoitida datlatimiz rahbari tomonidan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga oid besh muhim tashabbus”ning ilgari surilishida ham yoshlarimizning intilishlarini, bilim-zakovatini, jismoniy va ma’naviy kamolotini, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini o‘zlashtirishlari lozimligini nazarda tutganligi bilan e’tiborlidir.

Yoshlar haqidagi ta’rif va qarashlardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-demografik guruh sifatida yoshlar haqida quyidagi yondashuvlarni ilgari surish mumkin:

1. Ijtimoiy-psixologik guruh ekanligi. Bu yoshlarning biologik va psixologik masalalarda va yosh bo‘yicha muayyan bosqichda ekanligini bildiradi.

2. Submadaniy guruh ekanligi. O‘ziga xos hayot tarzi, axloqi, madaniy normalari va o‘ziga xos qadriyatlarga egaligini ifodalaydi.

3. Stratifikasion guruh ekanligi. Bu o‘z yosh chegaralariga ega bo‘lgan, alohida ijtimoiy-demografik guruh, alohida ijtimoiy mavqe, status va rolga ega bo‘lganligini bildiradi;

4. Jo‘shqinlik. G‘ayrat-shijoat, intilish, shu bilan birgalikda qonlari qaynoqligi bois konfliktga ham moyilligi, stresslarga to‘liq bo‘lib shaxs va jamiyat orasida kelishmovchiliklarni ham keltirib chiqarish ehtimoli mavjud bo‘lgan o‘z hayotining favqulodda davrini boshidan kechirayotgan guruh ekanligini bildirib, katta yoshli kishilar mana shu asov o‘zanni to‘g‘ri yo‘lga, ijobiy yo‘nalishga solishga mas’ul ekanliklarini bildiradi;

5. Obyektivizmga nisbatan subyektivizmga moyilligi, ya’ni dunyoni ba’zan o‘z qarichlari bilan o‘lchashga intilishi, o‘z fikr va qarashlarini to‘g‘ri deb biluvchi guruh vakillari sifatida ham ba’zan dunyoqarashlarini namoyon etishga moyil bo‘ladi.

Yuqorida yoshlar to‘g‘risida keltirilgan ta’rif va yondoshuvlarni inobatga olgan holda hamda bugungi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy realliklar sharoitida quyidagi ta’rifni ilgari surishni lozim topdik:

Yoshlar innovatsion g‘oyalarni o‘z tafakkuriga singdirib, kreativ industriyani harakatga keltirish salohiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruhdir.

Kreativ industriya deganda faqat iqtisodiy hamda sanoat sohasidagi

¹⁰ Мазуренко А.В. Становление и развитие социальных качеств студенческой молодежи в культурно-образовательной среде ВУЗа. Монография. – Ростов-на-Дону, 2006. – С. 13.

¹¹ Сергеева Н.В. Молодежь как поколение: проблема ценностных ориентаций: Дисс... канд.филос.наук. – Волгоград, 2002. – С. 10.

industriyani emas, balki g'oyalar industriyasini ham o'z tarkibiga olgan konseptni tushunish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, bugungi taraqqiyot sharoitida madaniy omillar ma'naviyatning yuksalishini ta'minlashda asosiy strategik prioritet sifatida maydonga chiqib, munosabatlarning optimallasuvi ushbu omil bilan bog'liq bo'lib qoldi. Madaniyat innovasion-g'oyaviy industriyani harakatga keltiruvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ya'ni, madaniyat kreativ industriyani harakatga keltiruvchi generator sifatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustahkam o'rin egallamoqda.

Ijtimoiy-madaniy omillarning shaxsning shakllanishiga, umuman olganda inson ma'naviyati rivojiga ta'siri to'g'risida so'z ketganda tashqi energetik ta'sirning shaxs ichki olami, uning qalbi va tafakkuri rivojini ta'minlovchi bosh omil sifatida qarash e'tiborga loyiqdir. Bunda tashqi ta'sir va shaxs ichki dunyosining o'zaro aloqasi, bir-birini to'ldiruvchi, mukammallashtiruvchi salohiyati, ichki ruhiy olami va jismoniy imkoniyatlarini tashqi tabiiy olam va jamiyat talab va imkoniyatlari bilan uyg'unlashtira borish xususiyatidir.

Yoshlar ma'naviyati haqida gap ketganda birinchi navbatda ulardagi vatanparvarlik va xalqparvarlik xislatlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Chunki, yoshlarda ma'naviyatni yuksaltirishdan asosiy maqsad ularda vatan va xalq taqdiri uchun mas'ullik hissini tarbiyalashdan iboratdir. Bu borada ham ijtimoiy-ma'naviy omillarning imkoniyatlaridan foydalanish muhim.

Yoshlar ma'naviyati deb milliy qadriyatlar va mental xususiyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy axloqning ijobiy jihatlarini o'z tafakkurida mujassamlashtirgan barkamol avlod dunyoqarashiga aytiladi.

Yoshlarda vatanparvarlik xislatlarini yuksaltirishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish ahamiyatli: Ma'naviy-axloqiy tarbiya; Tarixiy o'lkashunoslik, mintaqashunoslik ruhida tarbiyalash; Fuqaroviy-huquqiy tarbiya; Ijtimoiy-vatanparvarlik tarbiyasi; Jismoniy tarbiya asosidagi vatanparvarlik; Harbiy-qahramonlikka moyillik tarbiyasi va h.k.

Jamiyat taraqqiyotiga, jumladan yoshlar ma'naviyati yuksalishiga bir qator omillar ta'sir etadi. Masala mohiyatini teranroq anglash uchun dastlab "omil" tushunchasiga e'tibor qaratgudek bo'lsak, omil bu – voqelik, hodisa, muayyan jarayonni vujudga keltiruvchi sabab yoki harakatlantiruvchi kuchdir. Demak, yoshlar ma'naviy yuksalishiga ta'sir etuvchi bunday omillardan eng muhimi ijtimoiy va madaniy omillar bo'lib, ular individni shaxs sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi kuchdir.

Shaxs faoliyatining optimistik, bunyodkorlik mohiyati bevosita ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq. "Ijtimoiy-madaniy omillar – jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishga ta'sir etuvchi axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar, aholining bilim darajasidir"¹². Ushbu ta'rifda ijtimoiy omillarga nisbatan madaniy omillarning o'zni ko'proq ko'zga tashlanadi. To'g'ri, axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar hamda aholining bilim darajasi jamiyatda ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga ta'sir etadi, lekin bularning ijtimoiy omilga nisbatan madaniy omil

¹² Современные проблемы исследования социокультурной сферы: Сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции молодых ученых, аспирантов и соискателей. – Орёл, 25-26 февраля 2010. – С. 11.

ekanligi xususiyati ustuvorroq.

Ijtimoiy va madaniy omillar ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, insoniyat olamini hayvonot olamidan ajratib turadi. “Ijtimoiy va madaniy omillar bizning hayotimiz, ishimiz, iste‘molimiz uslubini shakllantiradi va jamiyatning deyarli barcha sohalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi”¹³. Har qanday tarixiy taraqqiyot ushbu omillarning insonning turmush tarzida qanday o‘rin tutganligi bilan bog‘liq. Jamiyat hayotida odamlar duch keladigan asosiy ijtimoiy-madaniy omillarga quydagilar kiradi. Bular: turmush tarzi; ta‘lim standartlari; xarid qilish odatlari; ishga munosabat; ijtimoiy mas‘uliyat; ijtimoiy farovonlik; dam olishga munosabat; tovar va xizmatlar sifatiga munosabat; atrof-muhit ifloslanishini nazorat qilish talabi; energiyani tejash; hukumatga munosabat; millatlararo munosabatlar muammolaridir.. Demak, jamiyatdagi ijtimoiy omillar keng qamrovli tushunchalar bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotga u, yoki bu tarzda ta‘sir etuvchi barcha omillarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, ijtimoiy omillarning tarkibiga mamlakatimizda olib borilayotgan Yoshlar siyosati, xotin-qizlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ijtimoiy hayotning faol a‘zosiga aylantirish, ta‘lim-tarbiya sohasidagi faoliyat, jamiyatda sog‘likni saqlashning ilg‘or, samarali usullarini joriy etish – umuman olganda yuqorida sanab o‘tilgan sohalar bo‘yicha kuchli ijtimoiy siyosat olib borish kabi masalalarni ham qamrab oladi.

Ijtimoiy omillar jamiyatda inson kamolotiga ta‘sir etuvchi ko‘plab omillar, chunonchi, atrof-muhit, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, qonun ustuvorligi, sud huquq tizimi, moddiy ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Jumladan xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklarini rivojlantirish, agrosanoat komplekslari, suv va ekotizimdan oqilona foydalanish, sog‘liqni saqlash, maorif tizimi ham ijtimoiy omillar sirasidandir. Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy barkamollik, ilm-fan va jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlarga e‘tibor hamda hamda jamiyatda xavfsizlikni ta‘minlash kabi masalalar ham ijtimoiy omil sifatida e‘tiborli.

Madaniy omillar esa inson dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilib, tafakkurida voqelikka bo‘lgan pozitiv munosabatini yuksaltirishga xizmat qiladigan, inson tafakkuri imkoniyatlari hamda ana shu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda inson qo‘li bilan yaratilgan moddiy va ma‘naviy madaniyat namunalarining inson tafakkuriga ta‘siridir. Madaniy omillar jamiyat a‘zolari madaniyatining o‘sishini ta‘minlashda muhim omil sanalib, madaniyat insonning atrof-muhitga bo‘lgan pozitiv munosabatini shakllantirishda muhim.

Madaniyat birlashtiruvchilik xususiyatiga ega. Madaniyat, madaniy tadbirlar tufayli millatlar, xalqlar va davlatlar orasida do‘stlik va hamjihatlik mustahkamlanib boradi. “Madaniyat faqatgina moddiy qiymatlarni yaratib qolmasdan ko‘tarinki ruhiyat va teran mazmun olami sifatida insonlar kayfiyatini ko‘tarib, ularni ayrim hamjamiyatlarga (millat, diniy va kasbiy guruhlar va h.k.)

¹³ Современные проблемы исследования социокультурной сферы: Сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции молодых ученых, аспирантов и соискателей. – Орёл, 25-26 февраля 2010. – С. 11.

birlashishlarini ta'minlaydi"¹⁴. Madaniyatning bunday birlashtiruvchilik xarakteri uning qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Odatda madaniyatni gumanizm bilan bog'liq holda tasavvur etishadi. Shu nuqtai-nazardan madaniyatning kriteriysi sifatida jamiyatni gumanizatsiyalashtirish maydonga chiqadi. Madaniyat ko'p funktsiyali tizim sifatida insonparvarlik yoki gumanistik funktsiyani, bilish yoki gneseologik funktsiyani, ryegulyativ yoki normativ funktsiyasini, syemiotik yoki belgilardan iboratlikni, qadriyatiy yoki aksiologik funktsiyasini o'z tarkibiga oladi.

Jamiyatda yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirishda ijtimoiy omillardan to'liq foydalana olmaslik natijasida bir qator muammolar ham vujudga kelishi mumkinki, ularning yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bular davlat organlariga ishonchning sustligi, yoshlar o'z imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik va buning natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy passivlik xususiyatlari va h.k. Ijtimoiy passivlik natijasida yoshlar o'z imkoniyatlarini to'g'ri yo'nalishga safarbar eta olmasdan mayda bezorilik, o'g'rilik, jinoyat yoki bunday yo'llarga kirib ketmagan taqdirda o'zga o'lkalarga arzon ishchi kuchi sifatida ketish holatlarini ko'paytirmoqda.

Dissertatsiyaning "**Madaniy hayotda tasvirlar, san'at asarlarining ijtimoiy mohiyati hamda dunyoqarashni yuksaltirish funktsiyasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida tasvirlar va marosimlar ilk ijtimoiy hayot in'ikosi hamda dunyoqarash ifodasi ekanligi, tasavvurlar va tasviriy san'at estetikasining ijtimoiy mohiyati, tarixiy tasvirlar hamda san'atning g'oyaviy mohiyati masalalar ijtimoiy-falsafiy yondashuv orqali tahlil etilgan.

Jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti ijtimoiy-madaniy omillarning inson tafakkuriga ta'siri bilan bevosita aloqador. Madaniy omillar sirasiga san'atni, san'at asarlarini ham kiritishlariga qaramasdan ushbu jihatlarning ijtimoiy mohiyati ham ustun. Chunki, har qanday madaniyat, hamda uning tarkibida bo'lgan har qanday san'at o'z badiiy-estetik ta'sir etish xususiyati bilan bir qatorda insonni ijtimoiylashtirish maqsadini ham o'z oldiga qo'yadiki, ushbu jihat jamiyatda birlik, do'stlik, qon-qardoshlik, hamjihatlik, mehnatni sevish, sevgi va sadoqat asosida oilani mustahkamlash va h.k. xislatlarning rivojini ta'minlab boradi. Shu jihatdan ham san'at va san'at asarlarining ijtimoiy funktsiyasini diqqat-e'tiborimizdan qochirmasligimiz lozim.

O'zbekiston tasviriy san'atida ilk davrlardagi totemistik mavzularda yaratilgan obrazlar va e'tiqodiy ramzlar uzoq asrlar osha turli dinlar ta'sirida o'zgarib, yangicha mazmunda o'z mohiyatini saqlab kelmoqda. Ilk diniy tasavvurlar qadim ajdodlarimizning qoya va toshlarga chizgan tasvirlarida ham o'z aksini topgan. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Zarautsoy ("oltin olov" degan ma'noni anglatadi) daryosi qirg'oqlaridagi tik qoyalarga ishlangan suratlarini olimlar mezolit davriga mansubligini aniqlashgan. Mazkur lavha haqida professor L.I. Rempel shunday yozadi: "Narsaning shakli, fakturasi, rang va ritmik chiziq birligini his eta bilish tuyg'ulari, shuningdek, plastik formalari – haykalchalarni o'ylab topish, yaratish hamda suratlar chizish, unga boqib, idrok eta bilish sezgilari

¹⁴ Лебедев С.В. Философские проблемы науки и искусства. Уч. пособие для магистрантов. – Санкт-Петербург: ВШНИ, 2021. – С. 25.

insonlar ongiga tabiatning go‘zal shakl-shamoyillarini tasavvur etish qobiliyatlarini yuzaga chiqarishdagi ilk ko‘rinishlar bo‘ldi”¹⁵. Hayvonlar qiyofasiga kirib ov qilish manzarasining tasvirlanishi Farg‘ona vodiysidagi Soymalitosh tog‘i g‘orlarida ham uchraydi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston hududida ilk diniy tushuncha va tasavvurlar qadimiy davrlardan shakllana boshlagan. Qadim marosimlar va ilk e‘tiqodlar xalq badiiy tafakkurining dastlabki ko‘rinishidir. Mazkur meros ajdodlarimiz dunyoqarashlarini qanchalik boyitgan bo‘lsa, ularning aksariyati ilk ramziy tasvirlar va moddiy boyliklar sifatida hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Xorazmda ishlangan sopol suvdonda ot tanali, burgut boshli, qanotli grifonlar topilgan¹⁶. Aylana ichidagi kompozisiyaning yuqori qismida qanotli afsonaviy ot – grifon aks etgan. Uning pastrog‘ida, ya‘ni kompozisiya markazida qadimgi dunyo diniy tasavvurlarida fantastik g‘oz ko‘rinishidagi grifon quyosh va olov bilan bog‘lanib, hayot daraxti oldida aks ettirilgan. Bu tasvirni olimlar “Xorazmning g‘aroyib qushi” ni tilkalayotgan grifon sahnasidagi kosmogonik mavzu ekanligini qayd etishgan¹⁷. Olov faol va nomoddiy unsur tarzida suv va u erga qarama-qarshi qo‘yiladi. “Ma‘naviy va ilohiy hodisalar ramzi sifatida havo bilan yaqinlashtiriladi”¹⁸..

O‘zbekiston qadimiy san‘at yodgorliklarida er-suv, farovonlikka erishish xudosi Anaxita obraziga ishlangan haykallar juda ko‘p. Qadimgi haykaltaroshlar Anaxitani bir qo‘lida anor yoki olma ushlab turgan ayol shaklida tasvirlaganlar. Arxeologik qazishmalarda Anaxitaning sopoldan yasalgan haykalchalari ko‘plab topilganligi ham yuqoridagi fikrini tasdiqlaydi. Anaxita otashparastlik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham aks ettirilgan.

Insonda go‘zallikni yaqqol idrok etish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof muhit ta‘sirida shakllanib boradi. Shunga ko‘ra, insoniyatning shakllanib, kamol topishi ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan uzviy bog‘liq. Go‘zallikka intilish, ya‘ni estetik tarbiya eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg‘ularini, badiiy didni tarbiyalash demakdir. Shaxsning kamol topishida aql bilan hissiyotni tarbiyalash, bunda o‘zaro ta‘sir elementlar kuzatiladi. Hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalash, desak ham to‘g‘ri bo‘ladi. San‘at asarlari insonni go‘zallikka undashi bilan, go‘zallikning sir-asrorlaridan xabardor etishi bilan ahamiyatli. Lekin, bu faqat san‘atning birlamchi, yuzaki funksiyasi desak to‘g‘ri bo‘ladi. San‘atning asosida yotuvchi eng etakchi vazifa – uning ma‘no tashuvchilik, g‘oya targ‘ib etuvchilik va umuman olganda tafakkurni o‘zgartiruvchanlik, ya‘ni falsafiy funksiyasidir. San‘atda, san‘at orqali targ‘ib etiladigan asarlarda g‘oyalar mujassam, bunday g‘oyalarni idrok etish esa insonning tafakkur darajasi hamda san‘atkorning ushbu g‘oyani etkaza bilish mahorati bilan bog‘liq.

Ma‘lumki, tasviriy san‘atning portret janri insonning ma‘naviy qiyofasini o‘zida ifodalashi bilan san‘atning boshqa turlaridan birmuncha farq qiladi. “Portret

¹⁵ Пугаченкова Г.А., Ремпель И. История искусств Узбекистана. – М.:1965,- С.17.

¹⁶ Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: ЖИ ва ДУ., 2008. – Б. 115-116.

¹⁷ Мингбоева Д. Гимсоллар тилсими. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 37-38.

¹⁸ Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. // O‘sha manba, – Б. 116.

orqali inson obrazini mohirona ko'rsata olgan buyuk rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiyeu kabi bir qancha rassomlarni kiritish mumkin"¹⁹.

Qadimgi tasvirlardan Afrosiyob devoriy suratlarida aks ettirilgan odamlarning qiyofasi va liboslarning bezaklari har bir davrning kiyimi o'z ko'rinishiga ega ekanligining dalilidir. Sharqning mumtoz musavviri Kamoliddin Behzodning mashhur portretlaridan biri – Sulton Husayn Boyqaro asarida shohona libosning nihoyatda bezaklarga boyligi, elka va ko'krak oldi naqshlar bezatilgan kiyim tasvirini kuzatamiz. Libos badiiy bezak va boy naqshlar bilan bir-biriga uyg'unlashib tasvirlangan. "Zamondosh rassomlardan M.Nabiyeuving "Amir Temur portreti"asari sharqona bezatilganligi bilan o'ziga xos. Sohibqiron egnidagi oq zarin oltin bezakli liboslarning boy ko'rinishi o'sha davr va zamon haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'lishda yordam beradi"²⁰.

Insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining har-bir bosqichlarida madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan san'atga e'tibor berilib, unda ijtimoiy-madaniy jarayonlarni ifodalovchi vosita, ma'no va g'oya tashuvchi manba sifatida qaralib kelingan. Ushbu jihatlar insoniyat idrok etib yashay boshlagan davrdan shakllanib, dastlar oddiy chiziqlarda, stixiyali xarakterga ega bo'lgan chizmalarda (ov marosimlari, harakat yo'nalishi va h.k.) o'z ifodasini topgan. San'at turlari o'z maqsadlari va shu maqsadlari doirasida o'z oldiga qo'ygan vazifalari bilan bir-biridan farqlanadi. Ushbu maqsad va vazifalar har bir davrning xususiyatlarini o'zida ifodalaganligi bilan ahamiyatli bo'lib, jamiyat a'zolarining qalbidan mustahkam o'rin olib boraveradi. Ijodkor o'z san'at asarlarida jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar, voqea va hodisalar, turli ijtimoiy-madaniy holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalaydi. O'z mahorati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tasvir orqali jarayonning ichki mohiyatni, ya'ni g'oyaviy jihatini ochib berishga intiladi. Bunda, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va g'oyaviy fikrlarini tasvirlashga intiladi. Aksariyat rassomlarning g'oyaviy yo'nalishi jamiyatda mavjud bo'lgan etakchi g'oya bilan hamohang bo'lib, ushbu g'oyani jamiyat a'zolari qalbi va ongiga singdirishga intiladi. Shu jihatdan ham san'at asarlari falsafiy mazmunlar majmuini ifodalab, maqsad va fikrni ifodalovchi, uni tashuvchi, jamiyat a'zolarining ongiga singdiruvchi manba bo'lganligi bilan ahamiyatli. "San'atga nisbatan falsafa, bir tomondan, uning ichki o'zini-o'zi rivojlanishining eng muhim manbai, insonning kognitiv va amaliy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan badiiy qadriyatlarni shakllantirish, boshqa tomondan, san'atni o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini ifodalovchi fan sifatida ahamiyatlidir"²¹. Falsafa san'at uchun metodologik asos bo'lishi bilan bir qatorda, ijodkor falsafiy dunyoqarashining darajasi san'at asarida mujassamlashgan maqsad va g'oyaning boy yoki aksincha, qashshoqlik darajasini ta'minlab boradi. Shu jihatdan ham san'at asarlariga nutqni, nutq bo'lganda ham jonli, ta'sirchan

¹⁹ Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Tasviriy san'at. – Toshkent. Cho'pon. NMIU, 2006.- B.70.

²⁰ Ойдинов Н. Рассом – ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. – Тошкент: "Ўқитувчи"- "Зиё-ношир", 1997. – Б. 24-27.

²¹ Фуртай-Проскурина И.Ф.В. Философские аспекты изобразительных искусств: учеб.пос. – СПб.: ЛГУ им. А.С.Пушкина, 2019. – С.86.

monologni o'zida mujassam etuvchi obyekt sifatida qaraladi. "Minglab yillar davomida – paleolit g'orlari rasmlaridan tortib postmodernizmdagi zamonaviy tajribalargacha – tasviriy san'at biror narsa haqida maxsus nutq sifatida mavjud edi"²². Albatta, notiqning nutqidagi mazmunli nuqtalarini anglash tinglovchining tafakkur etish, fikrni qabul qilib, sintezlashtira olish mahoratiga ham bog'liqdir.

Albatta, er yuzida hayotning paydo bo'lishi insoniyatning "Homo Sapiens" davridan boshlab bugungi kungacha barchani qiziqtirib kelganligi va kelayotganligi bilan ahamiyatli bo'lib, tafakkur va borliq orasidagi munosabatlar Falsafaning bosh masalasi sifatida e'tirofda ekanligini ham unutmasligimiz lozim. Koinot haqidagi bunday tasavvurlar: "Tasviriy san'atda qadimgi ajdodlarimizning borliq, olam haqidagi ilk tasavvurlari asosida yaratilgan asarlarga nisbatan qo'llanilib kelinmoqda"²³. Lekin, tarixiy jarayonlar talqini bo'yicha bugungi asarlarda ham mifologik obrazlar o'z aksini topib kelmoqda. "Mazkur tushuncha negizida koinotning yaratilishi, insonlar, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati to'g'risidagi qarashlarni o'z ichiga oladi"²⁴. Koinotning yaratilishi, unda insonlarning o'rni, nabotot va hayvonot dunyosining shakllanishi kabi masalalar har doim ham intellektual mulk egalarining diqqat markazida bo'lib kelgan, va albatta kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida aqliy mehnat vakillari sifatida ijodkorlar bunga e'tibor qaratishgan.

Tadqiqotning **"Ijtimoiy-madaniy omillar hamda ularning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi mas'uliyati va istiqbollari"** deb nomlangan uchinchi bobida madaniy omillarning ijtimoiy xususiyatlari hamda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi vazifalar, shuningdek yoshlar ma'naviy kamolotida ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish istiqbollari masalalari tadqiq etiladi.

Barkamol avlod tafakkurida bugungi ma'naviy-g'oyaviy qarama-qarshiliklar sharoitida g'oyaviy immunitetni yuksaltirish hamda axloqiy tamoyillarni rivojlantirishda qadriyatlarimizning tarkibiy sifatida e'tiborni tortuvchi ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish muhim. Madaniyat, ayniqsa san'atning g'oya tashuvchanlik funksiyasiga urg'u bergan holda uning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rniga e'tibor qaratish – bugungi ma'naviy yangilanishlar sharoitida muhim. Bu borada arxitektura sohasidagi mumtoz asarlar targ'ibiga keng e'tibor qaratish, ularni moddiy tariximizning ajralmas qismi sifatida jamiyat a'zolari, jumladan yoshlarda o'zlikni anglashni tarbiyalash yo'lida foydalana bilish – Yangi O'zbekiston sharoitida tarixiy qadriyatlarimizni targ'ib etishda muhim. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur bobomizning: "Bizning qudratimizga shubha qilsang – bir qurgan imoratlarga boq", – degan so'zlari hamda fanda "Temuriylar davri arxitekturasi" deyilganda ko'z o'ngimizda gavdalanadigan inshootlar salobati va ko'rki o'zlikni anglashda muhim. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi haqida so'z ketganda tarixiy tafakkur mahsulotlari targ'ibi bilan bir qatorda moddiy boyliklarimiz, inshoot va madaniy yodgorliklar targ'ibiga asosiy e'tibor

²² Горбунова Т.В. Изобразительное искусство в истории культуры (Опыт культурологического анализа). – Санкт-Петербург: Лениздат, 1997. – С.5.

²³ World Myths & Legends in Art. – New York. 2010. – P. 2.

²⁴ Jeremy Roberts. Mythology. Chinese Mythology A to Z. Ancestor Worship. – New York 2010. – P. 75.

qaratmog'imiz lozimki, ushbu jihat tarbiyaviy jarayonlarning samarasini ta'minlashda muhim. Ayniqsa, me'morchilik san'ati, unda tarixiy qadriyatlarimiz namunalari o'z ifodasini topganligi, ushbu jihatlar ajdodlarimiz salohiyatiga nisbatan hurmat hamda faxr-iftixor tuyg'usini shakllantirish omili ekanligini yoshlarimiz teran his etib, Vatan va xalq taqdiri uchun mas'ullik, tarixiy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtiromning rivojida etakchi omildir. Amaliy san'at namunalari xalqimizning tasavvur va dunyoqarashlari, ularning salohiyat va jasoratlari mujassam bo'lib, tarixiy xotirani rivojlantirish xususiyati bilan ham ahamiyatli. Tarixiy xotira esa – o'zlikni anglashning yuksalishida muhim.

Ma'lumki, ijtimoiy omillar kundalik ijtimoiy hayot davomida, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlar, aloqa vositalari yordamiga ta'sir jarayonlari davomida kuzatiladigan voqea va hodisalar bo'lsa, madaniy omillar esa – xalqimiz madaniyatining ajralmas elementlariga aylanib, asrlar davomida milliy qadriyatlarimiz tizimida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lgan urf-odat, an'ana, to'y-marosimlar, shuningdek bayramlar, tantanalar va qadriyatlarimizni ifodalovchi vositalarning barchasi madaniy omillar sifatida e'tibor berib, ularning tarbiyaviy mohiyatidan foydalanishimiz ahamiyatli. Buning uchun boshlang'ich, o'rta, o'rta-maxsus va oliy ta'lim tizimi bilan bir qatorda, mehnat va xizmat jamoalarida, oila va mahallalarda, shuningdek barcha bo'g'indagi davlat va fuqarolik jamiyati institutlarida yoshlar ma'naviyati yuksalishini ta'minlovchi madaniy tadbirlarni tashkil etish – bugungi kunning talabi sifatida yoshlar faoliyatining ijtimoiy mohiyatini ta'minlab boradi.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini aniqlash O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni yanada jadallashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanib, qadriyatlar yo'nalishining ijtimoiy-madaniy holatining indikatori sifatida ahamiyatli. Shu nuqtai-nazardan, o'rganilayotgan muammo doirasida ilgari surilgan fikrlarimizni tasdiqlash maqsadida empirik materiallarga murojaat etadigan bo'lsak, tanlangan mavzuning amaliy ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'la boshlaydi.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyati doirasida kitobxonlik alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Kitobxonlik jamiyat hayotining muhim ma'naviy qismi hisoblanib, yoshlarda zakovat va ijodiy salohiyatning manbaini shakllantirishning asosiy omillaridan biriga aylanadi. Mamlakatda axborot-kompyuter tizimining taraqqiyoti sharoitida kitobxonlik yoshlar uchun bilim olishning, ularda ma'naviy yo'nalishlarni va sezilarli ahamiyatga molik hayotiy manfaatlarni shakllantirishning asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsiologik so'rov yoshlarning kitobxonlikka qiziqishlari va moyilliklarini aniqlash asosida hozirgi yoshlardagi kitobxonlik madaniyatining o'ziga xosliklarini tasdiqladi. "Aying-chi, Sizning oilangizda taxminan qancha kitob mavjud?", degan savolga yoshlarning ko'pchiligi 50 tagacha (73,5%), 14,8%i 50 - 100 ta, 6,8%i 100-500 ta, 1,8%i 500-1000 ta, so'ralganlarning 1,5%i 1000 tadan ko'p kitobi borligini aytdi. "Sizning uyingizda qanday kitoblar mavjud?", degan savolga respondentlarning 57,6%i badiiy adabiyotlarni, 23,5 %i darsliklar va o'quv qo'llanmalarini, 13,5%i mutaxassislik bo'yicha kitoblarni va 2,7%i diniy kitoblarni ko'rsatdi. Madaniy taraqqiyotga hissa qo'shgan va qo'shib kelayotgan mashhur

rassomlar haqida so‘ralganda jahonga mashhur atoqli rassomlar qatorida Leonardo da Vinchi (19,8%), Pikasso (5,5%) Rembrandt (4,6%), Van Gog (2,3%) nomlari aytiladi. Yoshlar taniqli o‘zbek rassomlari haqidagi savolga javob berishga qiyinalishdi – 63,8%i. Yoshlarga Kamoliddin Behzod (9,3%), Ortiqali Qozoqov (6,1%), Akmal Nur (5,3%) kabi musavvirlarni bilishlarini aytib o‘tdilar. Yoshlar mashhur o‘zbek maqomlarini bilish darajasi: shashmaqom, mavrigiy (19,5%), munojot (2,2%), segoh (1,5%) bor. Respondentlar o‘zbek maqomlarining mashhur ijrochilari qatorida M.Yo‘lchiyeva (29,4%), Z.Suyunova (2,6%), Yu.Rajabiy (2,3%) nomlarini qayd etishdi.

Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish – unda ijtimoiy-madaniy omillardan yanada samarali foydalanib, yoshlarni yanada ijtimoiylashtirishni ta‘minlash uchun quyidagi vazifalar echimiga e‘tibor qaratish muhim.

1. O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini, ularning ma‘naviy intilishlari va hayotiy qadriyatlarga munosabatini bugungi fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitlarida o‘rganishda ahamiyatli. Bunda, yoshlarning o‘zini ijtimoiy faol subyekt sifatida his etishlarini aniqlashga va O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan “Taraqqiyot strategiyasi”ning muhim ustuvor yo‘nalishlarini hamda davlatning yoshlarga doir siyosatida belgilangan konseptual vazifalarning amaliy echimini ta‘minlashga hissa qo‘shishlari; Yoshlarda mehnat va mehnat faoliyati, kasb, mutaxassislik, lavozim, boshliq, xodim to‘g‘risida tushunchalarini kengaytirib, ularning faoliyatga ruhiy-psixologik hamda kasbiy tayyorgarligini ta‘minlab borish;

2. Bugungi global ta‘sirlar sharoitida yoshlar turfa tahdidlar ta‘siriga tushib qolmasliklari uchun ularda g‘oyaviy immunitetlarini boyitib borishlari, buning uchun Milliy g‘oyaning asosiy g‘oyalarining qalbi va onglariga singdirib borish lozim.

3. Yoshlarning ijtimoiy faolligini ta‘minlash maqsadida ularda mehnat faoliyatining asosiy shakllari va usullari bilan tanishtirgan holda professional oriyentatsiyani to‘g‘ri olish, bunda kasbiy yo‘nalish bo‘yicha tanlovni mustaqil qabul qilish, ya‘ni yoshlarni o‘z qiziqqan kasbiga yo‘naltira borish;

4. Yoshlarda individual-psixologik xususiyatlarning sog‘lom mohiyatini ta‘minlash, o‘z kasbiy ishtiyoqini sinash, rag‘batlantirish uchun ularda o‘z-o‘zini imtihon qilish ko‘nikmasini shakllantirib borish, yoshlarning kasbiy faoliyati bilan jismoniy imkoniyatlari orasidagi tafovut bo‘lmasligi, ya‘ni tanlagan kasbi bo‘yicha salohiyat va jismoniy imkoniyatlarga ega bo‘lishi;

6. Jamiyatda umumiy madaniyat tarkibida Yangi O‘zbekiston g‘oyalari va amaliy faoliyatini o‘z tarkibiga singdirgan yoshlar madaniyati rivojini bosqichma-bosqich ta‘minlashdan iborat;

7. Ma‘lumki, axborotlashgan jamiyat sharoitida potensial kapitalning ijtimoiy va moddiy funksiyasi oliy o‘quv yurtlari zimmasiga yuklanib boriladi. Ya‘ni, moddiy mahsulotga nisbatan axborot mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash – mutlaqo yangi tizim sifatida namoyon bo‘luvchi bilim dargohlarining zimmasida bo‘ladi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish korxonalarini o‘z etakchi mavqeyini klaster asosida yo‘lga qo‘ygan bilim dargohlariga bo‘shatib bera

boshlaydi;

8. Jamiyatda ijtimoiy differentsiatsiya, ya'ni tabaqalanishning asosiy ko'rsatkichi moddiy mavqe emas, balki ma'naviy omil – bilim va axborotni egallaganlik darajasi bilan o'lchanadi. Ma'lumot va axbrot bilan qurollangan yangi ijtimoiy qatlam vujudga kelib, jamiyatning "boy" va "kambag'allik" darajasini o'lchashda, ular asosiy kriteriy, ya'ni o'lchov birligi sifatidagi mavqegini mustahkamlab boradi. Bunday sharoitda ularda intellektual-kreativ qobiliyatni mustahkamlab borish lozim;

10. Axborotlashgan jamiyatning texnotizimi aqlli kompyuterlarning yangidan yangi modellari bilan boyib, jamiyatning raqamli mohiyatini ta'minlab boradi. Taraqqiyotning bu bosqichida kiberxavfsizlik hamda uni ta'minlash masalalari etakchi o'ringa chiqadi. Bunda yoshlar ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratib, ular ijtimoiylashuvini samarali o'ringa chiqarish muhim.

Ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanishning istiqbolli qirralari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

1. Jamiyatda ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma'naviyati tushunchalarining konseptual-metodologik asoslarini tadqiq etish yoshlar miqdori umumiy aholi miqdoriga nisbatan yuqori bo'lgan Yangi O'zbekiston voqeligida milliy fanimiz rivojini ta'minlashga xizmat qiladi;

2. Yoshlar ma'naviyati tushunchasining kategorial tahlili jamiyatda yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlar faoliyatida yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirishda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratishni taqozo etib, ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarning sifatii mohiyatini ta'minlashga xizmat qiladi;

3. Ijtimoiy omillarning jamiyat rivojidagi o'rni, jumladan ta'lim, tarbiya, oila, mahalla, o'quv dargohlari, xizmat va mehnat tashkilotlari o'z a'zolarining ma'naviyatini yuksaltirishga, davr talablari asosida ularning dunyoqarashi, tajriba va ko'nikmalarining o'sishidan ham manfaatdor va mas'uliyatli ekanligini targ'ib etish, tashkilot rahbarlari, umuman ziyolilarning zimmasiga yangi mas'uliyatlarni yuklaydi;

4. Ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma'naviyatining o'zaro aloqador ekanligi tadqiqi yoshlar tarbiyasi, shuningdek ma'naviyati keng qamrovli tushunchalar bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalari uning rivojiga xizmat qilishini faktik materiallar asosida tahlil etilishi jamiyatdagi barcha tashkilotlar va yo'nalishlarning maqsadi – ma'naviy yuksalishni ta'minlash ekanligini tasdiqlashga xizmat qiladi;

5. O'zbekiston davlatining barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan konseptual siyosiy yo'nalishlaridan asosiy maqsad – jamiyatning kelajak taraqqiyotini ta'minlovchi yoshlar ma'naviyati, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish ekanligi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi;

6. Kamoliddin Behzod (1468-1506-y.) davridan boshlab milliy qadriyatlarimizning asosiy namunasi hisoblanib kelingan mo'yqalam asarlari, ya'ni rangtasviy san'ati qadriyatlarining ijobiy namunalari targ'ibi jamiyatda ma'naviy tarbiya manbai ekanligining faktik materiallar asosida dalillanganligi miniatyura

asarlari, rangtasvir san'atining tarbiyaviy mohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

7. Amaliy san'atdagi mahobatli timsollar, mujassamalar, umuman gavdali tasvirlar ajdodlarimizning Vatan himoyasi, yurt va el mudofaasi hamda otabobolarimizning ma'naviy jasoratini idrok etib, faxr va iftixor hissini tuyib, ularning tarixiy tajribasidan saboq olishga undaydiki, ushbu jihat ham yoshlar ma'nviyatini yuksaltirishda muhim omil sifatida e'tiborlidir;

8. Jamiyat a'zolari, jumladan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanishdagi mas'uliyat va vazifalarning aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilib, tahlil etilganligi bugungi taraqqiyot sharoitida e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar sifatida mutassadi tashkilotlar bilan bir qatorda jamiyat ziyolilari zimmasida ekanligini ham tasdiqlaydi;

9. 2024-yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlashi bilan bir qatorda barkamol avlod tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratib, ularning axloqiy qiyofasini mukammallashtirish, mehr-oqibatli, umuman yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash ruhining ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilib, hokimiyatning quyi pog'onalarida, umuman jamiyatda yoshlar faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish xislatini yuksaltirib boradi.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish borasida yuqorida ta'kidlangan jihatlarga e'tibor qaratib, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-madaniy taraqqiyot rivojiga hissa qo'shib, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" konsepsiyasida qo'yilgan vazifalarning amaliy echimi sifatida ahamiyatli. Chunki, jamiyatning taraqqiyotini ta'minlovchi strategik yo'nalishda ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar, ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalalari qo'yilgan ekan, uning echimini ta'minlash – bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

XULOSA

Uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi milliy tavraqqiyot sharoitida kelajakda vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun kamarbasta bo'lgan yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratish muhim bo'lib, ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarda ushbu soha ziyolilarimiz va ota-onalarning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lishni taqozo etadi. Chunki, ma'naviyat yoshlar ruhini uyg'otuvchi buyuk qudrat sifatida barcha davrlarda ham dolzarb hisoblanib, jamiyat ziyoli qatlamlarining doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Barkamol avlodning buyuk kuch ekanligi, ularning salohiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda kelajak poydevorining mustahkam asoslarini yarata borish strategik ahamiyatga ega bo'lgan buyuku zaruratdir. Mamlakatimiz Prezidenti tomonida fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash to'g'risidagi mamlakat ziyolilarining oldiga qo'ygan konseptual vazifalar bevosita yoshlar potensialidan maksimal darajada foydalanib, ularning bilim, ko'nikma va tajribalarini zamon talablari darajasiga moslashtirib borishni taqozo etadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston g'oyasining amaliy ifodasi sifatida

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ro'y berayotgan pozitiv o'zgarishlar yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni rivojlantirib, xalq va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini oshirmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda: "Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning obod-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq"²⁵. Demak, tarbiyaviy jarayonlarga e'tibor qaratib, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish har birimizning zimmamizdagi vazifa sifatida muhimdir. Buning uchun ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish, ya'ni ijtimoiy va madaniy sohalarda qadriyatlarimizning muhim qirralarini ifodalovchi omillarni yoshlar tafakkuriga singdirib borish orqali ularda vatanga sadoqat va elga hurmat hissini rivojlantira borish tarbiyaviy jarayonlarda muhim jihat sifatida doimiy e'tiborni talab etadi. Bu borada mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek: "...yosh avlodimizning grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda"²⁶. Demak, barkamol avlodning fuqarolik mavqei kuchaytirib, faol ijtimoiy mavqei ta'minlab borish uchun ham ular tafakkurida ma'naviy omilning ustuvorligini ta'minlab borish zarurdirki, bu jihat bugungi taraqqiyot sharoitidagi talab sifatida doimiy diqqat-e'tiborni taqozo etadi.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish asosida ular dunyoqarashini milliy qadriyatlarimizning ijobiy qirralarini o'ziga singdirgan bunyodkor g'oyalar bilan sug'orish, yoshlar kundalik faoliyatini Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltira borish dolzarb vazifa sifatida ahamiyatli. Shuning bilan bir qatorda, tadqiq etilayotgan mavzuga bag'ishlangan ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, ularda ilgari surilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirib, mamlakatimiz yoshlari orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarni tahlil qilish bir qator xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi kunda "Yoshlar", "ijtimoiy-madaniy omillar", "yoshlar ma'naviyati" tushunchalarini ijtimoiy-gumanitar fanlarning tushunchalari, jamiyatda yoshlarning bunyodkorlik faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarni esa ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etish – milliy fanimiz salohiyatini ta'minlovchi omil sifatida ahamiyatli.

2. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga oid besh muhim tashabbus doirasida barkamol avlodni shakllantirish borasida nazariy konsepsiyalar tahlili hamda yoshlarning bunyodkorlik faoliyatini ta'minlashga xos va mos farazlarning ilgari surilishi tadqiq etilayotgan mavzu metodologiyasining real voqelik bilan bog'liq ekanligini tasdiqlovchi fikr-mulohazalar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga oid nazariyalar boyishiga xizmat qiladi.

3. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning ijtimoiy mavqei, Vatan va xalq manfaatlari yo'lidagi bunyodkorlik faoliyatini bugungi milliy taraqqiyot realliklari

²⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Ўзбекистон, 2022. – Б. 252.

²⁶ Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Том 2. – Toshkent: Ўзбекистон, 2018. – Б. 490.

nuqtai-nazaridan tadqiq etib, yoshlar ijtimoiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni tahlil qilish, respublikada yoshlar faoliyatini yanada jonlantirishga xizmat qiladi. Shuning bilan bir qatorda, global tahdidlarning mavjudligi sharoitida yoshlar dunyoqarashi, ularning amaliy faoliyatini izdan chiqarishga qaratilgan salbiy holatlarning ham ko'zga tashlanayotganligi sharoitida bunday tahdidlarga qarshi vosita sifatida O'zbekiston yoshlari ma'naviyatini boyitish asosida optimal dunyoqarashni yuksaltirishning yo'l va usullari tadqiqotga o'z ifodasini topganligi ahamiyatli.

4. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy omillarning ijobiy jihatlaridan foydalanish, jumladan kundalik turmush tarzida, oila, mahalla, mehnat va xizmat jamoalari, machit, to'y va marosimlardagi amru ma'rufalarda barkamol avlod tarbiyasiga oid hikmatlar targ'ibiga e'tibor qaratish lozim. Tarbiyaning bunday usuli yoshlar tafakkuriga tez ta'sir etib, ularning vujudiga singib, ma'naviy borlig'i sifatida o'zligini namoyon eta boshlaydi. Natijada yoshlarimizda ma'naviy-axloqiy xususiyatlar yuksalib, Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini qurishga kamarbasta bo'lgan yoshlar guruhining vujudga kelishiga ijtimoiy-madaniy zamin yaratila boradi.

5. Tarbiyaviy jarayonlarda madaniy omillar sifatida qadriyatlarimiz namunalarini o'zida in'ikos etgan tasviriy va amaliy san'at asarlari targ'ibidan samarali foydalanish, yoshlarda estetik didning yuksalishini ta'minlashi bilan bir qatorda ularning ma'naviy tarbiyasida ham muhim o'rin egallab, Vatan va xalq taqdiri uchun mas'ullik hissini kuchaytirishga xizmat qiladi.

6. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, jamiyatda, jumladan yoshlar qalbi va ongida g'oyaviy bo'shliq bo'lishi mumkin emas. Yoshlarning ongi va qalbini bunyodkor g'oyalar bilan to'ldirish uchun ham ijtimoiy va madaniy omillardan samarali foydalangan holda barkamol avlod ma'naviyatini yuksaltira borish muhim ahamiyatga molik voqea bo'lishi bilan bir qatorda yoshlar tarbiyasida klaster tizimidan foydalanish sifatida ahamiyatli.

7. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida fuqarolik jamiyatini qurish uchun barkamol avlod tarbiyasi muhim. Bunda ma'naviy yuksalish orqali o'zlikni anglab, o'tmishning ijobiy qirralarini qabul qilib, salbiy illatlaridan saboq chiqarib, bugun va kelajak orasidagi uzviylikni ta'minlab borish zaruriy omildir. Ushbu jihat jamiyatda birlik, hamjihatlik va umumfuqaroviy yakdillikni ta'minlashda muhim.

Tadqiqot natijalari va nazariy xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar taklif qilinadi:

1. Yoshlar ma'naviyatini ijtimoiy omillarning ijobiy qirralarini singdirish orqali boyitib borish Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasidagi konseptual vazifalar yechimini ta'minlashga xizmat qilib, ushbu jihatlarga e'tibor qaratish taqozo etiladi.

2. Madaniy omillarning tasviriy vositalari, jumladan rangtasvir, qalamtasvir va monumental toshtasvirlar, ularda ifodalangan qadriyatlarimiz namunalari yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik va bunyodkorlik hissining rivojiga xizmat qiladi. Shu bois, rangtasvir, qalamtasvir, tarixiy suratlar va g'ayrat, shijoat va matonat ifodalangan toshtasvirlar ko'rgazmalarini har faslda tashkil etib, yoshlar ishtirokini ta'minlash lozim.

3. Yoshlar ma'naviyat va ularning intellektual salohiyati to'g'risida gap ketganda ularni raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishga jalb etib, mehnat faoliyatlarida ITtexnologiyalari hissasini oshira borish.

4. O'zbekistonda bir yuzu qirqqa yaqin millat va elatlar yashashlarini hisobga olgan holda yoshlar ongiga oiladan va bolalar bog'chasidan boshlab bag'rikenglik xislatlarini singdira borish zarur. Chunki, ko'p millatli jamiyatda fuqaroviy hamjihatlikni ta'minlashda ushbu omil muhim.

5. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ma'rifiy islom omilidan foydalangan holda, yoshlar ongu-shuurida dunyoviylikning ustuvorligiga erishish. Zero, dunyoviylik hech qachon diniylikka qarshi bo'lmasdan, bir-birini to'ldirib keluvchi o'zanlardir.

6. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ularning jismoniy barkamolligi bilan bog'liq. Modomiki, shunday ekan yoshlarni sport inshootlariga ko'proq jalb eta borish muhim.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar tafakkurida ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish maqsadida oila, mahalla, ta'lim, xizmat va mehnat jamoalarida ota-ona, Vatan va xalq manfaatlarini tarannum va ifoda etuvchi hikmatlar va asarlarni singdirish ruhida tarbiyalash strategik maqsadlarimizga yetish yo'lida muhim omildir.

Umuman, jamiyatda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirib, ular faoliyatini yanada ijobiylashtirishning yo'l-yo'riq va usullari tadqiq etilib, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar hamda taklif-tavsiyalarning ilgari surilganligi mustaqil O'zbekistonda yoshlar faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyot rivojini ta'minlashga yo'naltira borish Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga qo'shiluvchi hissadir. Har qanday jamiyatning strategik maqsadi o'z kelajagini ishonchli qo'llarda ko'rish ekan, bugundan boshlab yoshlar ta'limi va tarbiyasiga e'tibor qaratish zaruriy ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.04.2021.F.76.06
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ГУЛАМОВ ОБИДЖОН ГАЙРАТОВИЧ

**РОЛЬ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ В ПОВЫШЕНИИ
ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ**

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/Fal1137.

Диссертация выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете.

Автореферат диссертации представлен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) и размещен на веб-странице Наманганского государственного университета (www.namdu.uz) и на образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Бердалиев Низомиддин Шералиевич
кандидат политических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Назаров Насриддин Атакулович
доктор философских наук (DSc), профессор

Маматов Обидхан Ваккосович
кандидат философских наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.04.2021.F.76.06 по присуждению ученых степеней при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бабуршах, дом 161, Тел.: (+99869) 228-85-01, факс: (+99869) 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бабуршах, дом 161. Тел.: (+99869) 228-85-01).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года
Реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года.

Р.Т.Жураев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук (DSc), профессор

К.О.Махкамов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по социологическим наукам, доцент

М.И.Исмоилов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном мире, на фоне глобального развития, некоторые негативные явления, проявляющиеся как угроза национальным ценностям, требуют особого внимания к интеллектуальному потенциалу молодёжи, считающейся движущей силой будущего прогресса, а также к их духовному возвышению, основанному на национальных особенностях. Поскольку социально-культурные факторы, прошедшие проверку тысячелетним опытом, играют важную роль в духовном развитии общества, их значение особенно велико в условиях современных глобальных влияний. Сегодня растущий как в количественном, так и в качественном отношении слой молодёжи становится основным объектом воздействия техногенной цивилизации, и становится очевидным, что любое развитие постепенно вовлекает молодёжь как восприимчивую силу в свою орбиту. Это явление, являющееся объективным процессом в условиях глобального развития, требует акцентирования внимания, воспитания и направления деятельности молодёжи как созидательной силы, способной внести вклад в оптимальное развитие общечеловеческого прогресса. Поскольку данная глобальная тенденция, стремящаяся оказывать влияние на мировом уровне и уже достигшая в этом определённых успехов, в первую очередь нацелена на воздействие на мышление и духовность молодёжи – субъектов усиливающегося социального прогресса, это также заслуживает особого внимания.

Во всём мире в обеспечении направления общечеловеческого прогресса на молодёжь смотрят как на основную силу, и научные центры, а также ряд исследовательских институтов ведут деятельность по изучению важности использования их потенциала и возможностей в интересах человечества. Особое значение имеет то, что они акцентируют внимание на социально-культурных факторах, положительно влияющих на мировоззрение и деятельность молодёжи в современных реалиях, когда под воздействием глобальных влияний в общечеловеческой культуре растёт соотношение духовного упадка или деградации по отношению к духовному развитию. Научные сообщества мира, международные фонды, а также организации, занимающиеся деятельностью молодёжи, выдвигают ряд концептуальных взглядов, направленных на освещение методологических основ взглядов по активизации молодёжи, и ведут теоретические исследования в этом направлении.

В Узбекистане также за последние годы были разработаны ряд мер, направленных на молодёжную политику и повышение их просветительской и духовной активности. Сначала была основана молодёжная организация «Камолот», которая затем преобразовалась в Союз молодёжи, далее была налажена деятельность Агентства по делам молодёжи, благодаря чему молодёжь в нашей стране получила возможность направить свой потенциал и знания в социально-политическое русло. В результате доля молодёжи в социально-политических сферах начала расти, и они стали активными

членами общества. Вопросы молодёжи были подняты до уровня государственной политики, о чём свидетельствует следующее высказывание: «Мы создаём молодёжи широкие возможности, доверяем им важные должности. У них есть знания, есть талант, но у некоторых ощущается отдаление от нашей национальной почвы, от национальной духовности»²⁷. Действительно, воспитание молодёжи в духе верности нашей национальной духовности, внедрение в них восточных нравственных и этических примеров как наследников наших ценностей, национализация их деятельности – является одной из актуальных задач сегодняшнего дня.

Концептуальные идеи, выдвинутые в диссертации, в определённой степени служат реализации задач, предусмотренных нормативно-правовыми актами, такими как: Закон Республики Узбекистан от 14 сентября 2016 года «О государственной молодёжной политике», Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указ Президента от 5 июля 2017 года №ПФ-5106 «О повышении эффективности государственной молодёжной политики и поддержке деятельности Союза молодёжи Узбекистана», Указ Президента от 19 мая 2017 года №ПФ-5046 «О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружественных связей с зарубежными странами», Указ Президента от 28 января 2022 года №ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указ Президента от 11 сентября 2023 года «О Стратегии "Узбекистан – 2030"», а также Распоряжение Президента от 8 апреля 2019 года №Ф-5465 «О мерах по разработке концепции развития национальной идеи на новом этапе развития Узбекистана» и другими нормативно-правовыми документами в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления II. «Пути социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства, формирования системы инновационных идей и их реализации» развития науки и технологий Республики.

Степень изученности проблемы. Научно-методологической основой исследования послужили труды Первого Президента Узбекистана Ислама Каримова²⁸, а также концептуальные идеи Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева, открывшие новый этап в социально-политической жизни страны и направленные на обеспечение стратегического, устойчивого и поступательного развития Узбекистана²⁹.

